XALQ DEPUTATLARI KATTAQO’RG’ON SHAHAR KENGASHI

Q A R O R I

2024 - yil 31 - yanvar VI-87-9-7-106-K/24 Kattaqo‘rg‘on shahar hokimligi

Kattaqo‘rg‘on shahridagi ayrim nomsiz ko‘chalar, tor va berk ko‘chalarni nomlash va qayta nomlash to‘g‘risida

Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2023-yil 7-noyabrdagi 2/59-sonli yig‘ilish bayoni, viloyat hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2023-yil 13-noyabrdagi 13-07/233-sonli yig‘ilish bayoni, O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligining 2023-yil 7-dekabrdagi 05-18-1623-sonli ekspertiza xulosasi hamda O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasiga asosan xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, sakson yettinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha shahar komissiyasi raisining o‘rinbosari J. Sherovning axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Geografik obyektlarining nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni hamda shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasining 2023-yil 7-noyabrdagi 2/59-sonli yig‘ilish bayoni bilan tasdiqlangan shaharda 13 ta nomsiz ko‘chalar 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Shahar hokimligi huzuridagi geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha komissiyasi (J. Sherov):

- o‘n kun muddatda mazkur qaror bilan tasdiqlangan shahardagi nomsiz ko‘chalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilish choralarini ko‘rsin;

- bir oy muddat ichida nomsiz ko‘chalarga nom berilishi munosabati bilan amalga oshirilishi lozim bo‘lgan barcha (zamonaviy va milliy dizaynda ko‘rsatkich belgilarini o‘rnatish, fuqarolar pasportlariga, muassasa va tashkilotlarning muhr va shtamplari hamda ish qog‘ozlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish va boshqalar) ishlarning sifatli bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Ushbu qaror “Kattaqo‘rg‘on tongi” gazetasi hamda shahar hokimligi rasmiy veb-saytida e’lon qilinsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Ijtimoiy-madaniy rivojlanish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi U.Sharipova zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **G. Alimova**

Xalq deputatlari Kattaqo‘rg‘on
shahar Kengashining
2024-yil 31-yanvardagi
VI-87-9-7-106-K/24-son qaroriga
1-ilova

Kattaqo‘rg‘on shahridagi nomsiz ko‘chalarni nomlash bo‘yicha TAKLIFLAR

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan o‘rni (MFY)	Geografik obyektning hozirgi nomi	Shahar komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Respublika ekspertiza xulosasi
1.	Tor ko‘cha	Usmon Nosir mahallasi	Nomsiz	Istoqbol	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
2.	Tor ko‘cha	Islom Shoir mahallasi	Nomsiz	Muhandislar-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
3.	Tor ko‘cha	Islom Shoir mahallasi	Nomsiz	Muhandislar-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
4.	Ko‘cha	Islom Shoir mahallasi	Nomsiz	Muhandislar	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
5.	Ko‘cha	Zarafshon, Nurafshon mahallari	Nomsiz	Yashnobod	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
6.	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz	Nurafshon-1	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
7.	Tor ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Nomsiz	Nurafshon-2	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
8.	Tor ko‘cha	Kattaqo‘rg‘on mahallasi	Nomsiz	Oybek-4	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
9.	Ko‘cha	Zarafshon mahallasi	Nomsiz	Qardoshlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
10.	Tor ko‘cha	Zarafshon mahallasi	Nomsiz	Qardoshlik	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
11.	Berk ko‘cha	O‘rikzor mahallasi	Nomsiz	Saodat-3	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
12.	Berk ko‘cha	Navbahor mahallasi	Nomsiz	Beklar-4	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.
13.	Ko‘cha	Alisher Navoiy mahallasi	Mutribiy	Mutriba	Qonun hujjatlari talablariga muvofiq.